XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 17 - fevral VI-43-21-6-89-K/22 Chust tuman hokimligi

Chust tumanidagi Sadacha va Mustaqillik mahallalarini bo‘lish, ularning chegaralarini belgilash, sobiq mahallalar hududida yangi tashkil etilayotgan mahallalarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chust tuman hokimining tumandagi (Sadacha va Mustaqillik mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalariga asosan) Sadacha va Mustaqillik mahallalarini bo‘lish, ularning har birining hududida ikkitadan mahallani tashkil etish, mahallalarning chegaralarini belgilash, yangi tashkil etilayotgan mahallarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Chust tumanidagi Sadacha va Mustaqillik mahallalarining raislari tomonidan tuman hokimi nomiga yozgan iltimosnomalari va yangitdan tashkil etiladigan mahallalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan ta`minlashda imkoniyatlar yetarli ekanligi haqidagi tuman moliya bo‘limining xalq deputatlari Chust tuman Kengashi kotibiyatiga chiqarilgan xati (ilova qilinmoqda) asos uchun qabul qilinsin.

3.Bo‘linadigan va tuziladigan mahallalarning chegaralari vakolatli idoralar tomonidan belgilanganligi inobatga olinsin.

4.Chust tuman Geografik ob’ektlariga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan tayyorlangan yangi tashkil etilayotgan mahallalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifiga viloyat komissiyasi tomonidan 2021-yil 27-dekabrdagi №15/25-4999-sonli yozma roziligi ijro uchun qabul qilinsin.

5.Chust tumanidagi Sadacha mahallasi hududi ikkiga bo‘linib, mahallalarning birini nomi Sadacha etib qoldirilsin, yangi tashkil etilayotgan mahallaga “Chust Gulzori” mahallasi deb nom berilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, 4820 nafar aholini o‘z ichiga olgan 915 ta xonadondan iborat hudud Sadacha mahallasi hududi etib, 5187 nafar fuqaro yashaydigan 1236 ta xonadon joylashgan hudud “Chust Gulzori” mahallasi hududi etib belgilansin.

6. Chust tumanidagi Mustaqillik mahallasi hududi ikkiga bo‘linib, mahallalarning birini nomi Mustaqillik etib qoldirilsin, yangi tashkil etilayotgan mahallaga “Yangi Bog‘ishamol” mahallasi deb nom berilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, 5608 nafar holini o‘z ichiga olgan 1057 ta xonadondan iborat hudud Mustaqillik mahallasi hududi etib, 2658 nafar fuqaro yashaydigan 614 ta xonadon joylashgan hudud “Yangi Bog‘ishamol” mahallasi hududi etib belgilansin.

7. Tuman hokimining tegishli soha o‘rinbosarlari va tuman moliya bo‘limi tashkil etilayotgan mahallalarning binosi, xodimlari va tashkiliy-texnikaviy masalalarini o‘z muddatida va qonuniy asosda tashkil etsinlar.

8. Tuman Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi, tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - M.Mirzaliyev, tuman Statistika bo‘limi - V.Jo‘rayev, tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi - X.Yuldashev, tuman Qurilish bo‘limi - A.Turg‘unov va boshqa vakolatli idora va tashkilotlar, yangi nom bilan tashkil etilgan mahallalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, elektron bazaga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, mahallalar chegaralariga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

9. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Alimov) yangi nom berilgan mahallalarda yashovchi fuqarolarning biometrik pasportlari va shu bilan bog’liq boshqa

masalalarda kiritiladigan o’zgarishlarni hal etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rsin.

10. Chust tuman hokimligi axborot xizmati (X.Ismoilova) "Chust haqiqati" (Z.Mehmonova) gazetasi bilan birgalikda ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishni ta`minlasin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Туман ҳокими **Б.Хамдамов**